




FILOLOGIYA MASALALARI

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ONLAYN KONFERENSIYASI**

10-IYUN, 2020-YIL

ANDIJON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“INTERVAL EDUCATION” NODAVLAT TA’LIM
MUASSASASI

“FILOLOGIYA MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari

Andijon 2020-yil, 10-iyun

«Сказки об Италии» asaridagi Amir Temur obrazi bilan tarixiy asarlarda gavdalantirilgan Amir Temur timsolini qiyosan o'rganish mumkin. Asardagi ona obrazini esa «Urushning so'nggi qurboni» hikoyasidagi ona timsoli va hokazo qator obrazlarni taqqoslab o'quvchilarni inson shaxsini o'rganishga, fazilatlarini ochishga o'rgatish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. –Toshkent: O'zirkomsent, 2003.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova P. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Barkamolfayz media, 2018. – 352 b.

ПОЭТИК НУТҚ: ҚОФИЯ ВА УНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Бердиев Хусан Холназарович
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
СамИСИ

Жаҳон филология фани ютуқлари тажрибасидан маълумки, тилшунослик ва адабиётшунослик (умумфилология) тараққиётида ўтилиши лозим бўлган босқичлар мавжуд. Шулардан бири тил ҳодисалари ва уларнинг намоён бўлиш усуллари систем-структурал аспектда ўрганиш масаласидир. Ҳ.Неъматов, Р.Расуловлар томонидан таъкидланганидек: “XX аср тилшунослик фанидаги кескин бурилиш нимадан иборат? Бу тилга тизим сифатида ёндашиш ҳамда тил ва нутқ ҳодисаларини фарқлашдан иборатдир. Назариётчи тилшуносларнинг ушбу саволга шундай жавоб берганлари айти ҳақиқат. Бинобарин, тил ва нутқ ҳодисаларини фарқлаш, тилга тизим сифатида ёндашиш, тилни тизим қонуниятлари асосида ўрганиш тилшуносликда катта бўрилиш ясади ва тилшунослик фанининг ривожига жиддий туртки бўлди” [Қаранг: Неъматов ва б, 3].

Тил ва нутқ ҳодисалари умумий ва ўзига хос хусусиятларга эга. Уларнинг бундай муносабати парадигматик ва синтагматик чизиқлар келишувида ёрқин намоён бўлади. Тил ҳодисаларининг ўз ва кўчма маънолари ҳиссий – таъсирдор кўламлари нутқ жараёнида юзага чиқади. Поэтик нутқ эса бунинг мукамал намунаси ҳисобланади.

Кузатишлардан маълум бўлишича, шеърӣ санъатлар лисоний хусусиятига кўра, бир неча турларга бўлинади.

Таъкидлаш жоизки, кофияда ҳам мазкур белгиларнинг айримлари акс этади. Қуйида уларнинг турлари ва ифодланиш усули ҳамда воситалари ҳақидаги кузатишлар баён қилинади.

Filologiya masalalari

Бу ўринда, дастлаб, товушларнинг поэтик мақоми масаласига тўхталиб ўтмоқ жоиз. Зеро, товушлар бадий матнда ҳам ритм, ҳам композиция учун хизмат қилади. Улар иштирокида, табиийки бадий санъатлар юзага чиқади. Чунончи, қуйидаги мисол бунинг далилидир. Қиёсланг:

Анїн	їшїн	кечурдум.
Эшїн	їма	качурдум.
Оїнум	опїн	їчўрдум.
Ічмі	болуб	їўзі тїрїн

Ушбу парчада мисралар сонорлар билан якунланади, бироқ дастлабки уч мисрада замон ва шахс-сон маънолари сонор иштирок этган сўзлар оркали охири тўртинчи мисрада “Ічмі” сўзи иштирокида ифодаланган. Тўртинчи мисранинг тугалловчи сўзи ҳам сонор товуш билан ниҳояланган ва ойни шу хусусият сонорларнинг мисралараро ритмик сақланишида ҳам хизмат қилганлигини кўрсатади. Парчада келган 13 та сўздан 9 таси сонорлар билан тугалланганлиги ҳам фикримизнинг далилидир.

_____	н	_____	н	_____	м,
_____	н	_____	_____	_____	м,
_____	м	_____	н	_____	м,
_____	_____	_____	_____	_____	н.

Қофия таркибидаги сўзларнинг ҳар 2 тизимини ўрганиш, товушларнинг лингвистик таърифини бойитиш ва уларнинг поэтик мақоми борасида фикр билдириш учун муҳим омил бўлади.

Таъкидлаш жоизки, адабий парчаларни бу жиҳатдан ўрганиш қофия турига доир муайян хулосаларни билдиришга олиб келади.

Матн доирасидаги қофия асосий қофия бўлганлиги боис ҳам девоннинг турли ўринларида учровчи, асли бир матнга тегишли бўлган парчаларни қайта тиклаш имконини беради. Фактик материал сифатида, жумладан, қуйидаги парчаларни олиб кўрайлик:

Тумліғ кэліб қапсадї,
Қутлуғ јајїғ тэпсәдї,
Қарлаб ажун јапсадї,
Эт јін ўшўб эмрішўр (I т., 430-б.).

Қудї булут јағмурїн
Кэріб тутар ақ торїн
Қїрқа қозтї ол қарїн

Ақін ақар аңрашур (III т., 46-б.).

Кўринадикки, шеър *а-а-а-б* тарзда кофияланган. Бунда *а-а-а* тарзидаги кофиялар алоҳида бандга, кейинги тўртинчи мисрадаги биз «б» билан кўрсатувчи кофия эса яхлит шеърий матнга тегишли бўлиб, шу кофиялар орқали яққалик умумийликка бўйсундирилган, алоҳида бандлар яхлит, тугал матнга айлантирилган. Бинобарин, матн структурасини таҳлил этишда бандлар оша кофиядошликни таъминловчи сўзлар вазифасига кўра асосий, алоҳида бандга тегишлилари иккиламчи хусусиятга эга бўлган унсур ҳисобланади, дейиш мумкин. Шунингдек, *а-а-а* тарзида кофияланувчи сўзлар бандларда ритмик бутунликни таъминлаш учун асос вазифасини ўтай олган, «б» шаклидаги тизимли кофия эса барча бандларни оҳангдошлик асосида туташтириб, яхлит бирликни, яъни композицион умумийликни ҳосил қилган.

Адабиётлар:

1. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Т.: Фан, 1960; III том. – Т.: Фан, 1963.
2. Нематов Х., Расулов Р. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., 1995.

LITERARY COMMENTARY OF THE NARRATIVE

“MOMOQO‘SHIQ” BY NAZAR ESHONQUL

Niyozmatov Abdullajon

Qo‘qon DPI magistranti

Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar.

Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang-barangligi, mazmunining ko‘lamdorligi bilan ham ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra bu janrni ummonga qiyoslash mumkin. Badiiyat olami esa kashfiyotlar manbaidir.

Xususan, mustaqillik davrida ko‘plab ijodkorlar qissachilik janrida barakali ijod qilmoqdalar. Sh.Bo‘taev, M.Boboev, X.Do‘stmuhammad, N.Norqobilov, Sh.Hamro, N.Eshonqul yaratgan asarlar kitobxonlar e‘tiborini jalb qilmoqda. Chunki, bugungi adabiyot – alohida, ayni chog‘da turli-tuman shaxslarning tuyg‘ulari, qiyofalari aks etgan adabiyot sifatida qad rostlagan. Zamondoshimizning o‘zi – alohida, betakror va yaratuvchi inson. Shu ma’noda, zamondoshimizni o‘z shaxsiyatining elchisi, deyish mumkin.

Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida o‘zbekning o‘ziga xos tabiatini, ko‘nglidagi sezimlar va mayllarini aks ettirishga intilishning kuchayganligi ham kitobxon e‘tiboridan chetda qolmayapti. Bunday o‘ziga xoslik qahramon ruhiyati

Filologiya masalalari

<i>Saydiyevna</i>	MUXAMMASI XUSUSIDA SOʻZ	
<i>Oxunjonova Faxriniso</i>	MUQIMIY, FURQAT, HAZINIY IJODIDA ZULLISONAYNLIK	268
<i>Saidova Dilnoza</i>	OʻZBEK XALQ ERTAKLARIDA SHART-SINOVLARINING OʻZIGA XOSLIGI	273
<i>Shokirova Nafisaxon</i> <i>Obidovna</i>	SAIDA ZUNNUNOVANING QISSA YARATISH MAHORATI	275
<i>Xolmatova Maʼmuraxon</i> <i>Gʻofforovna</i>	OʻZBEK ADABIYOTIDA ZAMON VA MAKON MUAMMOSI (Rauf Parfi sheʼriyati misolida)	278
<i>Сохуба Бегматова</i>	НАША ПРЕКРАСНАЯ ДЖЕЙН ОСТИН	280
<i>Oybek Baymenov</i>	ADABIYOT DARSLARIDA MEHR TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH (<i>sheʼriyat misolida</i>)	283
<i>Muhammadyusuf</i> <i>Tursunov</i>	CHOʻLPON – MOHIR TARJIMON	285
<i>Muhiddinova Nozima</i> <i>Sobirjonovna</i>	ADABIY TAʼLIMDA EVRISTIK METODDAN FOYDALANISH	287
<i>Tashtanova Gulnora</i> <i>Manasbayevna</i>	MAXTUMQULI SHEʼRIYATINING GʻOYAVIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	289
<i>Yusupov Abrorjon</i> <i>Nosirjonovich</i>	ADABIY TAʼLIM JARAYONIDA TADQIQOT METODIDAN FOYDALANISH	293
<i>Бердиев Хусан</i> <i>Холназарович</i>	ПОЭТИК НУТҚ: ҚОФИЯ ВА УНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ	295
<i>Niyozmatov Abdullajon</i>	LITERARY COMMENTARY OF THE NARRATIVE “MOMOQOʻSHIQ” BY NAZAR ESHONQUL	297
TAʼLIM VA TARBIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI		302
<i>Asqarova Surayyo</i> <i>Raxmonberdiyevna</i>	BOLALARDA ILK PSIXOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH	302
<i>Ахтамов Жамшед</i> <i>Бахромович</i>	ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ СОҒЛОМ ОИЛАНИ РИВОЖЛАНТИРИШИДАГИ ЎРНИ	303
<i>Ахтамов Жамшед</i> <i>Бахромович</i>	ТАЛАБАЛАР САЛОМАТЛИГИНИ ЯХШИЛАШДА СОҒЛОМЛАШТИРУВЧИ ГИМНАСТИКАНИНГ ЎРНИ	306
<i>Коссе Рулен Бекирович,</i> <i>Убайдуллаев Бехруз</i>	ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ С ПОМОЩЬЮ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ	308
<i>Коссе Рулен Бекирович,</i> <i>Яхшиликов Илхом</i>	ОММАВИЙ СПОРТДА МИЛЛИЙ ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ЎРНИ	312